

## QURILISH ISHLARI

*2020-yil yanvar-fevral*

2020-yilning yanvar-fevral oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **741,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **100,3** % ni tashkil etdi.

**Yirik qurilish korxonalari**



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**





**Norasmiy sektor**



**O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**Jami qurilish ishlaridagi ulushi, % da**



2020-yil yanvar-fevral oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **48,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **10,1** % punktga kamaygan.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga

nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **71,3 %** i to`g`ri kelib, o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan **9,6 %** punktga ko`paydi. Shuningdek, ular hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan **116,3 %** ni tashkil qilgan holda, **528,9** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to`g`ri kelgan qurilish ishlari ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **0,5** punktga ko`payib, **22,2 %** ni tashkil etdi va **164,8** mlrd. so`m miqdorida qayd etildi. O`tgan yilning mos davriga nisbatan o`sish sur`ati **101,4 %** ni tashkil etdi .


### **Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo`yicha qurilish ishlari**

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **39,7** mlrd. so`m, yoki, 2019-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **2,1** marta ko`p qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **702,2** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, o`sish sur`ati **130,9 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi ulushlari mos ravishda **5,4 %** va **94,6 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirish ishlari**

*jamiga nisbatan ulushi, % da*



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlar qurilishiga to'g'ri kelmoqda. Jami qurilish ishlarining **76,3** % i yoki **565,8** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Shu jumladan, yirik qurilish korxonalarini bo'yicha yangi qurilish hisobidan **21,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi, yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **3,7** % ni tashkil etdi.

- Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **391,6** mlrd. so'm, yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **69,2** % ni tashkil etdi.


- Norasmiy sektor hissasiga **153,1** mlrd. so'm, yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **27,1** % ni tashkil qildi.

**Hududlar bo'yicha qurilish ishlari**
**( 2020-yil yanvar-fevral)**
*(mlrd. so'm)*

	<b>Qurilish ishlari hajmi</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirish</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>741,9</b>	<b>100,3</b>	<b>565,8</b>
shaharlar:			
Qarshi	228,8	112,8	174,5
Shahrisabz	38,7	83,1	29,5
tumanlar:			
G'uzor	35,4	112,2	27,0
Dehqonobod	18,1	103,7	13,8
Qamashi	19,3	118,4	14,8
Qarshi	82,0	109,7	62,5
Koson	54,0	52,0	41,2
Kitob	52,1	115,3	39,7
Mirishkor	17,5	97,6	13,3
Muborak	34,0	115,5	26,0
Nishon	10,3	105,3	7,8
Kasbi	26,9	104,8	20,5
Chiroqchi	54,1	97,9	41,3
Shahrisabz	23,8	115,4	18,1
Yakkabog'	46,9	110,9	35,8

## **Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari**

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,9 %** ini yoki **11,3 mlrd. so'mni** tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,2 %** punktga kamaydi.




Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **4,3 %** punktga ko'payib, **70,3 %** ni yoki **416,0 mlrd. so'mni** tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,1 %** punktga kamayib, **164,7 mlrd. so'mni** yoki **27,8 %** ni tashkil etdi.


## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan, % da)

2019-yil yanvar-fevral



2020-yil yanvar-fevral



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish korxonalarini tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **21,5** % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **10,0** % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **78,5** % ni tashkil etib, o'z navbatida o'tgan yildagi ko'rsatkich bilan solishtirganda **10,0** % punktga ko'paydi.

### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **32,2 %** punktga kamaydi va **28,3 %** ni tashkil etdi. Qolgan **71,7 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **32,2 %** punktga ko'paydi.

(jamiga nisbatan, % da)




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari**
**(2020-yil yanvar-fevral)**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>		
		binolar va inshootlar qurilishi	fuqarolik qurilish obyektlari	ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>741,9</b>	<b>592,0</b>	<b>79,3</b>	<b>70,6</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi	228,8	182,6	24,4	21,8
Shahrisabz	38,7	30,9	4,1	3,7
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	35,4	28,3	3,8	3,3
Dehqonobod	18,1	14,4	1,9	1,8
Qamashi	19,3	15,4	2,1	1,8
Qarshi	82,0	65,4	8,8	7,8
Koson	54,0	43,1	5,8	5,1
Kitob	52,1	41,6	5,6	4,9
Mirishkor	17,5	13,9	1,9	1,7
Muborak	34,0	27,2	3,6	3,2
Nishon	10,3	8,2	1,1	1,0
Kasbi	26,9	21,4	2,9	2,6
Chiroqchi	54,1	43,2	5,8	5,1
Shahrisabz	23,8	19,0	2,5	2,3
Yakkabog'	46,9	37,4	5,0	4,5



**Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'ati**

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)



**Hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'atlari bilan bajarilgan qurilish ishlari**

**Qamashi tumani (118,4 %):**

- "LADA" avtosalonining qurilishi;
- Gipsokarton ishlab chiqaradigan zavodning qurilishi;
- Qamashi tumani Gulshaniy ko'chasida ko'p qavatli turar joylarning qurilishi.

**Muborak tumani (115,5 %):**

- Muborak tumanida madaniyat saroyining qurilishi;
- Terini qayta ishlash korxonasining qurilishi;
- Muborak tumani "Bobur" mahallasida arzonlashtirilgan ko'p qavatli turar joylarning qurilishi.

**Shahrisabz tumani (115,4 %):**

- Dekorativ panellar ishlab chiqaradigan korxonaning qurilishi ;
- Shahrisabz tumani “Bobur” va “Yashil diyor” MFY hududlarida jismoniy shaxslar tomonidan turar joylarning qurilishi;

**Kitob tumani (115,3 %):**

- Mevani saqlash uchun sovutgich qurilishi;
- Kitob tumani “Yangi Obod” MFY hududida arzonlashtirilgan ko’p qavatli turar joylarning qurilishi;
- Tegirmon va omuxta yem uskunalarini ishlab chiqaradigan zavodning qurilishi;

**G’uzor tumani (112,2 %):**


- O’quv markazining qurilishi;
- Blok g’isht ishlab chiqaradigan korxonasining qurilishi;

**Qarshi sh. (112,8 %):**

- Ma’muriy bino va davlat xizmatlari markazi binolarining qurilishi;
- “Tabassum” mahallasida nodavlat maktabgacha ta’lim muassasasining qurilishi;
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ko’p qavatli va ko’p xonadonli turar joylarning qurilishi;
- Uch qavatli “Umumiy ovqatlanish, savdo va maishiy xizmat ko’rsatish” binosining qurilishi;

**Hududlar bo'yicha qurilish ishlari**

( jamiga nisbatan, % da)



Joriy davrda ham jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **71,3 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning nisbatan yuqori ulushi Qarshi, Shahrisabz tumanlarida va Qarshi shahrida qayd etildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng past ulushi esa Dehqonobod hamda Mirishkor tumaniga to'g'ri kelmoqda. Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining **22,2 %** i to'g'ri kelmoqda. Qurilish ishlari hajmida norasmiy sektorning yuqori ulushi Dehqonobod (**66,8 %**) hamda Mirishkor (**62,9 %**) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



**Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**

Nashr uchun ma'sul:

**A. Isayev**

Aloqa telefoni:

**(75) 221-32-47**